
MILLIY VA ZAMONAVIY CHOLG'U IJROCHILIGI tanlovining sektorlararo tuman bosqichiga start berildi

Buvayda tumani 17-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida "Besh tashabbus olimpiadasining" ikkinchi mavsumi doirasida "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" yo'nalishining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovning ochilishida so'z olgan Yoshlar ishlari agentligi Buvayda tumani bo'limi boshlig'i I.Qayumov bugungi kunda yurtimizda yoshlarning iqtidori, qobilyati, iste'dodlarni ro'yobga chiqarish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun ko'plab tanlov va loyixalar o'tkazilayotganligi, shu bilan birgalikda tumanimiz yoshlarining "Besh tashabbus olimpiadasining" birinchi mavsumi doirasida qo'lga kiritgan yutuqlariga shu bilan birgalikda yoshlarga berilayotgan imtiyozlarga alohida to'xtalib, barcha ishtirokchilarga omad va zafarlar tiladi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar viloyat bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanma oladilar

2023-10-18 13:08:23